
"Temurbeklar maktabi"ning o'qituvchi va o'quvchisi respublikada birinchi bo'lishdi

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Fanlar akademiyasi tarix instituti, Davlat xavfsizlik xizmati, Mudofaa, Ichki Ishlar hamda Favqulodda vaziyatlar vazirligi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi hamkorligida mamlakatimizdagi "Temurbeklar maktabi" hamda "Yosh chegarachilar" harbiy-akademik litseylari o'rtasida "Yangi O'zbekistonga qanot bo'lamiz!" shiori ostida "Eng namunali ta'lim muassasasi", "Eng namunali o'qituvchi" va "Eng namunali o'quvchi" tanlovlari o'tkazildi.

Eng quvonarlisi, Farg'ona shahridagi "Temurbeklar maktabi"ning o'qituvchi va o'quvchilari mazkur tanlovda faol ishtirok etishdi. "Eng namunali o'qituvchi" tanlovida Husniddin Qoraboyev, "Eng namunali o'quvchi" tanlovida Asilbek Qurbonboyevlar tanlov g'olibligini qo'lga kiritishdi.

Bugun tanlov g'oliblari keng jamoatchilik vakillari ishtirokida Marg'ilon shahridagi temiryo'l vokzalida tantanali kutib olindi. Shundan so'ng, "Temurbeklar maktabi"da tadbir tashkillandi. Ko'tarinki ruhda o'tgan tadbirni maktab direktori Behzodjon Ismatov ochib, g'oliblarni muborakbod etdi. Shundan so'ng, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi rahbar o'rinbosari Shavkatjon To'ychiyev, shahar bo'linmasi rahbari Azizbek Soyibnazarov hamda ustoz va murabbiylar tanlov ishtirokchilarini qutlashib, keyingi ishlarida muvaffaqiyatlar tilashdi. G'oliblarga diplom va esdalik sovg'alari topshirildi.

Tadbir davomida shahrimizdagi ta'lim muassasalarining ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchilar hamda iqtidorli o'quvchilar tomonidan tayyorlangan madaniy dastur ham namoyish etildi.

2022-06-13 09:33:04